

"O'zkimyosanoat" AJ va "Sinoma EC International Investment Co. Ltd" o'rtasida kelishuv imzolandi

// 12.06.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-sinoma-ec-international-investment-co-l>



Joriy yilning 12-iyun kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizim korxonalari uchun muqobil elektr energiya bilan ta'minlash va ishlab chiqariladigan tovar mahsulotlarni tannarxini pasaytirish maqsadida Xitoy Xalq Respublikasining "Sinoma EC International Investment Co. Ltd" kompaniyasi bilan muzokaralar o'tkazildi.



Muzokaralar natijasida ikki tomon o'rtasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuv imzolandi.




Ma'lumot uchun: "Sinoma EC International Investment Co. Ltd" — 1987-yilda tashkil etilgan, kapitallashuvi

600 milliard AQSh dollari va 2000 nafar ishchiga ega bo'lgan kompaniya. U asosan sanoat korxonalarining chiqindilaridan ishlatilgan issiqlikni qayta ishlash (WHR), shuningdek, biomassa, geotermal va quyosh energiyasiga asoslangan elektr stansiyalari qurish bilan shug'ullanadi.



Kompaniyaning portfelida dunyo bo'ylab 1000 dan ortiq loyihalar mavjud.

Mazkur kelishuv "O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq, sanoatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati